



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O'ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEKNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDAGI
O'RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKA VIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6

UO‘K 556.182:551.5(08)

BBK 26.222+26.236

«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo’jaligidagi o’rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to’plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yisha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San’at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abduraufovna - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).

© Mualliflar

Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

- формированию аргументативных навыков;
- активизации критического мышления.

В- четвёртых, необходимо отметить результаты и педагогическую значимость подобной работы. Включение экологической тематики в курс русского языка способствует:

- расширению активного словарного запаса по теме экологии;
- формированию умений аналитически воспринимать информацию;
- повышению учебной мотивации;
- воспитанию ответственного и бережного отношения к окружающей среде.

Ценность экологического содержания заключается в том, что оно способствует личностной активности студентов и делает гуманитарные дисциплины более ориентированными на решение реальных задач. Студенты не только совершенствуют владение русским языком, но и начинают задумываться об экологических проблемах, развиваются критическое мышление и коммуникативные навыки. Таким образом, язык становится не только средством общения, но и инструментом воспитания экологической культуры.

В заключение следует подчеркнуть, что интеграция экологического содержания в обучение русскому языку в вузах представляет собой эффективный инструмент формирования как профессиональных, так и общекультурных компетенций студентов. Такой подход не только расширяет гуманитарное знание, развивает речевую культуру и формирует экологическую ответственность, но и способствует становлению всесторонне развитой, социально ответственной личности. Включение экологической тематики укрепляет междисциплинарные связи, делает образовательный процесс более осмысленным, практико-ориентированным и соответствующим современным требованиям устойчивого развития.

Список литературы:

1. Ясвин В. А. *Экологическое образование: теоретические и практические основы*. — М.: Смысл, 2001.
2. Суровегина И. И. *Методика преподавания русского языка в контексте экологического образования*. // Вестник МПГУ. Серия: Педагогика и психология. — 2020.
3. Зверев И. Д. *Экологизация гуманитарного знания*. // Образование и экология. — 2015.
4. Мирханова М. С. Теория и методика обучения экологии: место и значение в системе педагогических наук // Бухара, 2025
5. Бойченко Т. М. *Русский язык как средство формирования экологической культуры студентов*. // Язык и культура. — 2018.
6. Гаджиева Н. З. *Дискурсивный анализ экологической тематики в обучении русскому языку*. — М.: Флинта, 2022.

EKOLOGIK TARBIYA VA KONSTITUTSIYA

Sanobar Nasrullayevna Xodjayeva

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar, tillar va jismoniy madaniyat” kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni asrab-avaylash har bir fuqaroning nafaqat konstitutsiyaviy, balki kelajak avlod oldidagi eng mas’uliyatli burchi ekanligi yoritilgan. Konstitutsiyamizning 49, 61 va 62 moddalarini mazmun-mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Konsitutsiya, modda, ekologiya, atrof-muhit, iqlim, inson huquqi, madaniy meros, muhofaza

Ekologiya va atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omildir. BMT ma'lumotlariga ko‘ra, inson salomatligining 20-40 foizi atrof-muhit sifati va holatiga uzviy bog‘liq. Qulay atrof-muhit, tabiiy zaxiralalar qisqarayotgan, global iqlim o‘zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog‘liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda ekologik ta’lim va tarbiyani shakllantirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik tarbiyaning muhim jihat shuki, talabalarda ekologik kompetentlikni, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish bilan birga, ularning o‘z hududlarini obodonlashtirish, ko‘chat-

daraxtlar ekish va ularni o‘z vaqtida parvarish qilish, ko‘l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalashda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlariga beg‘araz yordam ko‘rsatishni taqozo etadi. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog‘liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. Talabalar insonning tabiatdagi o‘rnini, ona shahri yoki qishlog‘i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko‘l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtayi nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo‘naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi.

Shaxsning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi insonning asosiy fundamental huquqlaridan bo‘lib, insonning barcha asosiy huquqlarini, shu jumladan yashash huquqini amalga oshirish uchun juda muhimdir. Qulay atrof-muhit deganda, insonga munosib va farovon hayot kechirishga imkon beradigan, insonning jismoniy mavjudligini ta‘minlaydigan, unga intellektual, axloqiy, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanish imkoniyatlarini beradigan muhit tushuniladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 49-moddasida: birinchidan, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega, degan qoida mustahkamlandi.

Davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha choralarни amalga oshiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ta‘kidlash joiz, so‘nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko‘payib, 3,6 millionga yetgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi, degan hayotiy zaruratga mos norma belgilandi. Orolbuyi mintaqasida yuzaga kelgan global ekologik muammo 50 million nafarga yaqin mintaqqa aholisining hayot tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilk marotaba “Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri-Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda -Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q”, deb ta‘kidlagan edi. O‘zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Orol dengizi tubining 2,5 million hektarida yangi “yashil makon” yaratilmoqda. Orol va Orol bo‘yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyada ushbu normaning belgilanishi mintaqqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlarining yaratilishini va turmush darajasi jiddiy tarzda yaxshilanishini ta‘minlaydi, barcha kasb egalari, bиринчи navbatda ijtimoiy soha vakillari uchun qo‘shimcha imtiyozlar paketi qo‘llaniladi hamda tadbirdorlik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining atrof-muhitni himoya qilishga yo‘naltirilgan turli loyihalarda faol qatnashish imkoniyati paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 61-moddasida “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi”, deyiladi. Mazkur modda tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni muhofaza qilish hamda undan samarali foydalanish bo‘yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini kengaytirishga asos bo‘ladi. Dunyo tamaddunida munosib o‘ringa ega bo‘lgan shonli ko‘p mingyllik tariximizni o‘rganish, ma‘naviy va madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga hamda O‘zbekistonning tabiiy merosi asl holida saqlanishiga va uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga xizmat qiladi. Chunki, O‘zbekiston-betakror tarixiy obidalar, madaniy meros ob‘ektlariga boy o‘lka bo‘lib, respublikamizda 8 210 ta moddiy-madaniy meros ob‘ektlari mavjud. Bundan tashqari, madaniy meros ob‘ektlari O‘zbekiston turizm salohiyatining yetakchi yo‘nalishi bo‘lib, sayyoohlarning aksariyati eng avvalo tarixiy obidalarimizni ko‘rish uchun tashrif buyuradi. Mamlakatimizda 200 dan ortiq xalqaro sayyoqlik yo‘nalishlarining 150 dan ortig‘i aynan tarixiy-madaniy meros ob‘ekti

bilan bog'liqligi ham bejiz emas. Shu bois ularni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasiga muvofiq, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. Ushbu normaning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, unda birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan; ikkinchidan, atrof tabiiy muhit tushunchasining yuridik mazmunidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning ushbu normasi nafaqat fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish majburiyatini ham nazarda tutadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, turli chiqindilar tashlanishining oldini olish, o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlari hamda atmosfera havosini muhofazalashga faqat davlat organlari faoliyatini takomillashtirish bilan erishib bo'lmasligini anglatgan holda, har bir inson o'z oilasi, mahallasi, o'qish va ish joyida atrof-muhitni asrash talablariga qat'iy rioya qilishini talab etadi.

Xulosa. Ta'lif jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish haqida tushuntirilganda uning huquqiy mexanizmlarini yoritib berish zarur. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi ekologik normalarni birinchidan, fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta'minlaydi, ikkinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish tamoyilini konstitutsiyaviy qoida sifatida mustahkamlab, davlat ekologik siyosatining huquqiy asoslarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston va BMT: tarixiy sessiya hamda tarixiy nutq. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-bmrtarixiy-sessiya-hamda-tarixiy-nutq>.
3. Mamajonov Sh.A. "Oliy ta'lilda ekologik tarbiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar". Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue:11/ nov-2022. 110-117 betlar.
4. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Қонунчилик ва хуқуқий сиёсат институти. -Тошкент. "Адолат" миллий хуқуқий ахборот маркази, 2023 йил.-180 б.

EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

B.Safarov

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti" Milliy tadqiqot universiteti
Buxoro tabbiy resurslarni boshqarish instituti kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik ta'lif va tarbiya tushunchalarining shakllanishiga doir nazariy va amaliy asoslar tahlil qilinadi. Ekologik ong va madaniyatning rivojlanishi, shuningdek, zamonaviy ta'lif jarayonida ekologik tarbiyaning tutgan o'rni yoritiladi. Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, tarixiy tajriba, tamoyillar va metodlar chuqur tahlil qilinadi. O'zbekiston tajribasi asosida milliy xususiyatlar inobatga olingan holda istiqbolli takliflar beriladi. Maqola PhD darajasidagi ilmiy izlanish talablariga mos holda ishlab chiqilgan bo'lib, ekologik ta'limga oid metodologik yondashuvlarni keng qamrab oladi.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lif, ekologik tarbiya, ekologik ong, metodologiya, tamoyil, zamonaviy ta'lif, O'zbekiston tajribasi.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of the formation of concepts related to environmental education and upbringing. The development of ecological consciousness and culture, as well as the role of education in this process, are examined in detail. The factors influencing the development of environmental awareness, historical experiences, principles, and methods are critically evaluated. Based on the experience of Uzbekistan, forward-looking proposals are presented taking into account national specificities. This paper is developed in accordance with PhD-level research requirements and provides comprehensive methodological approaches to environmental education.

Keywords: environmental education, ecological upbringing, ecological awareness, methodology, principle, modern education, Uzbekistan experience.